

BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA TAHLILIIY TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISH

DOI: 10.5281/zenodo.11163334

Tog'ayeva Oybarchin Do'smamatovna

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Samarqand filiali magistranti

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim mакtablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish darslarida interfaol metodlarni samarali qo'llash orqali o'quvchilarda tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish usullari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *interfaol metod, izlanish metodi, izohli o'qish, mantiqiy o'qish, badiiy o'qish, ifodali o'qish.*

Barchamizga ma'lumki, o'qish inson xayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi va dunyoni o'zi uchun kashf etadi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. Aynan o'qish orqali insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda "O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop matnlar kiritiladi. Albatta, o'quvchi matnni o'qish bilan birga uni tahlil qila olish qobiliyatini ham rivojlantirishi kerak. Shu bois, bugungi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalangan holda o'quvchilarni o'qigan matni yuzasidan tahlil qilishga va o'z fikrlarini berishga undashimiz va buni ayniqsa interfaol metodlar yordamida amalga oshirishimiz zarur. Jumladan, interfaol metodlar - ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni

ayniqsa tahlil qilish sifatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Albatta, ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratishdir. Dars davomida hech bir o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar ya'ni o'qigan matnlarni tahlil qiladilar.

Shuningdek, ta'lif jarayonlarini didaktik o`yinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritamiz ya'ni interfaol o`yinli metodlar o`quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o`quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu metodlar o`quvchilarda tahlil qilish, hisoblash, o`lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishslash, nutq o`stirish, til o`rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi.

O'qishning ham o'ziga xos turlari bo'lib jumladan, izohli o'qish ayniqsa tahlil qobiliyatini oshirishda samaralidir. Izohli o'qishga XIX asrning 60—70-yillarida rus pedagogi K. D. Ushinskiy asos solgan, u o'qishda o'quvchilarni ,ongli, tushunib, o'ylab o'qishga" o'rgatishni alohida ta'kidlaydi va uni "Izohli o'qish" deb nomlaydi. Izohli o'qish metodiga K. D. Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxterev izohli o'qish o'quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o'quvchilarga o'qish jarayonida bilim badiiy asar tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bog'liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar. Izohli o'qish: quyidagi tamoyillarga toliq amal qilingandagina muvaffaqiyatli bo'ladi:

1. O'qishning ongli va ta'sirchan bolishi uchun o'quvchilarning hayotiy tajribalariga, taassurotlariga asoslanish.

2. O'qishni ko'rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o'simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish.

3. Matnni o'quvchining ifodali o'qishi tarzida olib borish.

Boshlang'ich ta'lif tizimida mantiqiy o'qish (matnni to'g'ri, tushunib, tez (me'yorida) o'qish) va adabiy o'qish mukammal o'zlashtirilganidan so'ng ifodali o'qishga o'tiladi. U yod olingen she'riy asarlarni ifodali o'qishni ham o'z ichiga oladi. Ifodali o'qishning muvaffaqiyati o'quvchilarining asar mazmuni, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo'lishi bilan bog'liq. Ohang va intonatsiya she'riy asarlarni ifodali o'qishda qay darajada muhim bo'lsa, nasriy asarlarni o'qishda ham muhim talablardan biridir. Nasriy asarlarni ifodali o'qishdan oldin unda qanday g'oya ilgari surilayotganini aniqlash zarur.

Badiiy o'qish ifodali o'qishning yuksak bosqichi hisoblanadi. Unda so'z san'atining barcha komponentlari ishtirok etadi. U o'quvchidan asarga batamom kirishni, san'atkorona o'qishni talab etadi. Badiiy o'qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to'la anglab yetilgandagina ta'sirchanlikka erishish mumkin.

Izlanish metodi. Bu metod asardagi voqeja va tafsilotlar asosida o'quvchilarga savol-topshiriqlar tuzishda, qahramonlarga baho berishda keng qo'llaniladigan usuldir. O'qish darslarida reproduktiv metod keng qo'llaniladi. Masalan, o'qituvchi dastlabki darslarda o'zi asar matnini qismlarga bo'ladi, yozuvchi yoki shoirning aytmoqchi bo'lgan muhim fikriga o'quvchilar diqqatini jalb qiladi, uni aniqlab ko'rsatadi, o'quvchilar bilan birga tasvir vositalariga yuklatilgan ma'noni ochishda o'quvchilarga ko'maklashadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'quvchilarda tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish o'qituvchilarining va ularning dars davomida qo'llayotgan metod va pedagogic texnologiyalarining o'rni beqiyosdir.

REFERENCES

1. B. Ziyamuhamedov, M.Tojiyev. Pedagogik texnologoyazamonaliv o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.
2. M. To'rayeva Boshlang'ich sinf o'qish darsida interfaol uslublardan foydalanishning ta'limi ahamiyati "Science and Education" Scientific Journal May 2021 / Volume 2 Issue 5
3. Qorayev S. B., Janbayeva M. S. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. Academic research in educational sciences, 2021. 2(4), 149-153.
4. Qorayev S. B., Allayorova S. B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturi tizimiga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari. Academic research in educational sciences, 2021. 2(2), 443-448.
5. Тилакова М., Қораев С. Ўқувчилар креативлик қобилиятларини ривожлантириш бўйича тавсиялар. Academic Research in Educational Sciences, 2020. 1 (4), 184-189.
6. Қораев С. Б. Фанларни ўқитишида табақалаштирилган таълим технологиясини жорий этиш масалалари. Таълим технологиялари, 2016. 2, 45-50.
7. Қораев С. Б. Умумий ўрта таълим муассасаларида ўқув-ишлаб чиқариш мажмуаларини ташкил этишининг долзарблиги. Таълим, фан ва инновация, 2018. 4, 28-31.